

SHAHAR MAGISTRAL KO‘CHALARIDA LANDSHAFT LOYIHALASH XUSUSIYATLARI

Mirzaaxmedov Abduxalim Toxirovich

Farg‘ona davlat texnika universiteti

“Arxitektura va kompyuter grafikasi” kafedrası dotsenti

Soliyeva Shahloxon O‘ktamjon qizi

M4-25 BIA guruhi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20588160>

Annotatsiya

Mazkur maqolada shahar magistral ko‘chalarida landshaft loyihalashning zamonaviy xususiyatlari tahlil qilindi. Magistral ko‘chalarda ko‘kalamzorlashtirishning ekologik, estetik va funksional ahamiyati yoritildi. Shuningdek, transport infratuzilmasi va yashil hududlar uyg‘unligini ta‘minlash bo‘yicha zamonaviy yechimlar ko‘rib chiqildi.

Kalit so‘zlar: landshaft arxitekturasi, magistral ko‘cha, ko‘kalamzorlashtirish, urban muhit, ekologiya, yashil hudud, shaharsozlik, landshaft dizayni

Аннотация

В данной статье проанализированы современные особенности ландшафтного проектирования городских магистральных улиц. Освещено экологическое, эстетическое и функциональное значение озеленения магистральных улиц. Также рассмотрены современные решения по обеспечению гармоничного взаимодействия транспортной инфраструктуры и зеленых насаждений в городской среде.

Ключевые слова: ландшафтная архитектура, магистральная улица, озеленение, городская среда, экология, зеленые зоны, градостроительство, ландшафтный дизайн

Annotation

This article analyzes the modern features of landscape design for urban arterial streets. The ecological, aesthetic, and functional importance of greening arterial streets is highlighted. The study also examines contemporary solutions aimed at ensuring the harmonious integration of transport infrastructure and green spaces within the urban environment.

Keywords: landscape architecture, arterial street, urban greening, urban environment, ecology, green spaces, urban planning, landscape design.

Kirish

Bugungi urbanizatsiya jarayonida shahar magistral ko‘chalarining ekologik va estetik holatini yaxshilash dolzarb masalalardan biri bo‘lib hisoblanmoqda. Transport oqimining ortishi havoning ifloslanishi, shovqin darajasining oshishi va mikroiklimning yomonlashuviga sabab bo‘lmoqda. Bunday sharoitda landshaft dizayni orqali ekologik va estetik muhitni yaxshilash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Magistral ko‘chalarda zamonaviy landshaft elementlaridan foydalanish shahar aholisi uchun qulay va xavfsiz muhit yaratishga xizmat qiladi..

Adabiyotlar tahlili

A.S. Uralov o‘zining “Landshaft arxitekturasi” asarida shahar hududlarini ko‘kalamzorlashtirish urban muhitning ekologik holatini yaxshilashda muhim o‘rin tutishini ta‘kidlab o‘tgan. K.D. Raximov va A.S. Uralov tomonidan yozilgan “Landshaft arxitekturasi obyektlarini loyihalash” kitobida magistral ko‘chalarda yashil hududlarni tashkil etish tamoyillari,

o‘simlik tanlash mezonlari hamda kompozitsion yechimlar haqida ma‘lumotlar berilgan. D.U. Isamuxamedovaning “Shaharsozlik asoslari va landshaft arxitekturasi” asarida esa shahar ko‘chalari va jamoat hududlarini rejalashtirish masalalari yoritilgan.

Asosiy qism

Magistral ko‘chalar shahar transport tizimining asosiy elementi hisoblanadi. Shu sababli ularni landshaft asosida tashkil etish nafaqat estetik, balki ekologik va funksional ahamiyatga ham ega. Ko‘chalarda daraxt va butalarni to‘g‘ri joylashtirish havodagi chang va zararli gazlarni kamaytiradi, shovqin darajasini pasaytiradi hamda mikroiklimni yaxshilaydi.

Magistral ko‘chalarda ko‘kalamzorlashtirishda o‘simliklarning iqlimga mosligi, chang va gazga chidamliligi, soyaboplik xususiyati va parvarish qulayligi hisobga olinadi. Ko‘pincha chinor, eman, archa, kashtan kabi daraxtlardan foydalaniladi. Yashil hududlar transport qatnovidan ajratuvchi himoya zonasi sifatida ham xizmat qiladi.

Zamonaviy shaharsozlik amaliyotida vertikal ko‘kalamzorlashtirish, bio-drenaj tizimlari, yomg‘ir suvini yig‘uvchi yashil hududlar va energiya tejankor yoritish elementlari keng qo‘llanmoqda. Bu usullar ekologik barqarorlikni ta‘minlash bilan birga shahar estetik ko‘rinishini ham boyitadi.

Farg‘ona shahri sharoitida magistral ko‘chalarda qurg‘oqchilikka chidamli o‘simliklardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek, piyodalar hududlari va veloyo‘laklarni yashil hududlar bilan uyg‘unlashtirish zamonaviy urban muhit yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Ilmiy takliflar

Magistral ko‘chalarda “yashil koridor” tizimini tashkil etish tavsiya etiladi. Bunda ko‘chalar bo‘ylab uzluksiz yashil hududlar barpo etilib, piyodalar va velosiped yo‘laklari bilan integratsiya qilinadi. Shuningdek, yomg‘ir suvlarini yig‘uvchi bio-drenaj tizimlaridan foydalanish ekologik samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, magistral ko‘chalarda landshaft loyihalash shahar ekologik muhitini yaxshilash, estetik ko‘rinishni boyitish va aholining qulay yashash muhitini yaratishda muhim ahamiyatga ega. Ko‘kalamzorlashtirish transportdan chiqadigan zararli omillarni kamaytiradi hamda urban hududlarda ekologik muvozanatni ta‘minlaydi. Shuningdek, ko‘chalarda ekologik monitoring tizimlarini o‘rnatish orqali havoning ifloslanish darajasini nazorat qilish mumkin.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Uralov A.S. Landshaft arxitekturasi. – Toshkent, 2014.
2. Raximov K.D., Uralov A.S. Landshaft arxitekturasi obyektlarini loyihalash. – Toshkent, 2016.
3. Isamuxamedova D.U. Shaharsozlik asoslari va landshaft arxitekturasi. – Toshkent, 2018.
4. Shahar yo‘llari va ko‘chalar arxitekturasi. – Toshkent, 2019.
5. Avtomobil yo‘llari va shahar ko‘chalarini loyihalash. – Toshkent, 2020.